

GLOBALLASHUV VA MA'NAVIY ONG: SHAXS KAMOLOTIGA FALSAFIY YONDASHUV

Ochilova Nigora Ruzimuratovna,
Qarshi davlat texnika universiteti
"Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513788>

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining ma'naviy ongga ta'siri va uning shaxs kamoloti bilan o'zaro bog'liqligi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Global axborot makonida qadriyatlar transformatsiyasi, milliy va umuminsoniy ma'naviy mezonlarning uyg'unligi masalalari ochib beriladi. Shuningdek, ma'naviy ongning shakllanishida ta'lim, madaniyat va ijtimoiy muhitning o'rni asoslanadi. Muallif globallashuv sharoitida shaxs ma'naviy barkamolligini ta'minlashga qaratilgan falsafiy yondashuvlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ma'naviy ong, shaxs kamoloti, ma'naviy qadriyatlar, falsafiy yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, kreativ fikr, tafakkur, ijodiy izlanish, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В статье философски анализируется влияние процессов глобализации на духовное сознание и их взаимосвязь с развитием личности. Рассматриваются вопросы трансформации ценностей в глобальном информационном пространстве, соотношение национальных и общечеловеческих духовных ориентиров. Особое внимание уделяется роли образования, культуры и социальной среды в формировании духовного сознания. Предлагаются философские подходы к обеспечению духовного совершенствования личности в условиях глобализации.

Ключевые слова: глобализация, духовное сознание, развитие личности, духовные ценности, философский подход, национальные и общечеловеческие ценности, инновационный подход.

Abstract. This article provides a philosophical analysis of the impact of globalization processes on spiritual consciousness and their relationship with personal development. It examines the transformation of values within the global information space and the interaction between national and universal spiritual principles. Special attention is paid to the role of education, culture, and the social environment in shaping spiritual consciousness. The author proposes philosophical approaches aimed at fostering the spiritual maturity of individuals in the context of globalization.

Keywords: globalization, spiritual consciousness, personal development, spiritual values, philosophical approach, national and universal values, creative thinking, innovative approach.

Kirish. Zamonaviy ta'lim barcha turdagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchi, pedagoglarning o'z faoliyatlarini kreativ ijodkorlik asosida tashkil etish mahoratiga ega bo'lishlarini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan umumta'lim tizimida, kreativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi davrda, ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida turli hayotiy sharoit va vaziyatlarda ongli tarzda qarorlar qabul qila oladigan, nostandart fikrlovchi kreativ shaxsni tarbiyalash birinchi darajali muammo sifatida maydonga chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu muammoga to'xtalib, "Biz, "Yangi

O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘taramiz. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqamiz va ijroga qaratamiz”, deb alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamiz olimlaridan L.Axmedova, U.Begimqulov, N.Muslimov, B.Rahimov, N.Tayloqov, E.F.Zeyer, T.M.Sorokina, V.N.Vvedenskiy, M.I.Lukyanova, A.V.Xutorskoy, Sh.Sharipov va boshqalar ta’lim sohasida ijtimoiy-pedagogik, akmeologik masalalarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan va bu tadqiqotlarda bevosita muayyan yo‘nalishlardagi mutaxassislarning keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari pedagog olimlar H.Abdukarimov, N.Azizxo‘jayeva, A.Aliyev, Y.A.Axrоров, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo‘rayev, B.R.Jo‘rayeva, J.G‘. Yo‘ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, A.A.Hamidov, F.R.Yuzlikayevlarning ishlarida ham tadqiq etilgan. Jumladan, N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu ham talabaning amaliyot jarayonida va oliy ta’limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida V.Baydenko, A.Zalevskaya, E.Zeyer, I.Zimnyaya, O.Polyakov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va takomillashtirish usullarini turli jarayonlarda tahlil qilish va tizimlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Natija. Ijodiy izlanish natijasida hosil bo‘ladigan bilim mazmuni yangi texnik yechim, badiiy asar, matematik formula, nazariya, qonuniyat kabilar kreativ shakllarda jamiyatga taqdim etiladi.

Yangi sifat – kreativlik mahsuli – faqatgina ikki yoki undan ortiq nisbatan avtonom tizimlar bitta yangi tizimga birikkanida yuzaga keladi. Aynan ularning yangi tizim doirasida o‘zaro ta’sirlashuvi yangi sifatning yuzaga kelishini belgilab beradi. Boshqa sohalar bilan tutash bilim sohaları, amaliy hayotda esa odatda o‘tish davrlarida kreativlik potentsiali yuqori hisoblanadi.

Turli-tuman, o‘zaro qarama-qarshi jihatlarni birlashtirish kreativlikning eng muhim manbalaridan biri sanaladi. Buning muhim jihati yangi hosil qilingan jihatning dastlabki mahsulotda mavjud bo‘lmaganligidir. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish kreativlikning yana bir manbaidir. Turli buyumlardagi umumiylikni ko‘ra olishi abstrakt tafakkur bilan bog‘liq. Agar, ikki voqea qaysidir jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, u sabab-oqibat bog‘liqligida o‘z aksini topadi. Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish kreativlikning san‘at va falsafa bilan bog‘liq turlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng umumiy jihatlariga ko‘ra kreativlik faoliyati turlarini uch guruhga bo‘lish mumkin: a) prinsipial jihatdan yangi yechimlarni ilgari surish; b) ushbu yangilikning

amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uni detallashtirish, konkretlashtirish, ishlab chiqish; v) yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish, u yoki bu moddiy shaklda keltirish bilan bog‘liq faoliyat.

Yaratilgan kreativlik mahsulini ma‘nosi va murakkabligiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin: ratsionalizatorlik taklifi – eng oddiy ijodiy ishlanma bo‘lib, mavjud va avvaldan qo‘llanilgan tizim, jarayon va vaziyatlarning ayrim tarkibiy qismlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yangi fikr; ixtiro – yuqori darajada texnik ishlanma hisoblanib, mavjud bo‘lganlaridan jiddiy farq qiluvchi texnik yechim; kashfiyot – moddiy dunyoning ilgari ma‘lum bo‘lmagan obyektiv mavjud qonuniyat, xossa va hodisalarni aniqlanishi.

Muhokama. O‘quvchining kreativligi uning o‘ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo‘ladi. O‘quvchining ijodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog‘lay olish, olingan natijalarni to‘g‘ri baholab, tahlil qilishi, avvalgi egallanganlari bilan umumlashtira olishdir. Bu jarayonni texnologik ijodkorlik yangilik elementlarini aniq texnologiyaga o‘tkazish, bir texnologiyani yangi, samaralirog‘iga tubdan o‘zgartirishga qaratilganligi bilan boyitadi.

Kreativ faoliyatni o‘qituvchi va o‘quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Aniq metod, shakl, vositalarga intilish ularni boshqalarni tan olmasliklariga olib keladi.

Xulosa. Kreativlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (bilim olish jarayonining rivojlanish darajasi), ijtimoiy-psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta‘lim berish va ta‘lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Jamiyat rivojlanishi bilan texnika va texnologiyalarning juda tez almashinishi insondan o‘z hayoti mobaynida o‘zgarishi mumkin bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklarga moslashib borishni talab qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarda bo‘lajak kasbi va kasbiy faoliyatga kreativ yondashishni tarbiyalash zarur hisoblanadi.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin. O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH.M. Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyoti,2021. – B. 226.
2. Usmonboyeva M., To‘rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. o‘quv –uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016
3. Xaydarova O.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvga tayyorlash. Monografiya. –Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2020.
4. Ochilova N. R.. The importance of spiritual education of young people with intellectual potential «scientific progress» Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 march 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz

5. Ochilova N. R. Journal [Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth](#). central asian journal of social sciences and history. 2022/11/17.T3,№11, p-116-118
6. Ochilova N. Yukh Manzarov. The development of aesthetic perception - Problems of Science, 2019, Publisher LLC "Olimp", No. 10 (46), 38-40
7. Ochilova N. R. Modern civilization: similarities and differences. Journal of the International Scientific-Practical Distance Conference. Publisher Scientific progress 2021. V.15, No. 15, pp. 24-26
8. Ochilova N. R. National problems in the light of modern trends in the process of globalization. - International Scientific and Practical Conference World science. ROST publisher. 2017, V.5, No. 4, p-11-13

